

TISH KARIESI

Alfraganus Universiteti

Tibbiyot fakulteti stomatologiya ishi yo`nalishi 1- kurs talabasi

Saidov Quvonchbek

Anatatsiya; Mazkur maqola tish kariesini paydo bo`lishi haqida bo`ladi kariesning kelib chiqish sabablaridan biri bu gigiyenaga rioya qilmaslikdan kelib chiqadi. Bu patalogik holat hisoblanadi, yani, tish chiqqandan so`ng kuzatiladi. Bunda tish qattiq to`qimalarini demineralizatsiyasi va yemirilishi hamda tish qattiq to`qimasida nuqson hosil bo`lishi xarakterlanadi. Karies bilan zararlanish 3ta asosiy ko`rsatgich bilan baholanadi.

**Kalit so`zlar:** K, asallikni tarqalishi, Tishlarning karies bilan zararlanish intensivligi, Kasallikning o`rish intensivligi, Tasirlovchi omillar, Karies kasalligi patogenezi.

Kasallikni davolash

Karies-bu ijtimoiy kasallik, buni sivilizatsiya kasaligi deb aytish mumkin. Odamlarda tish kariesining birinchi dalilari 2500-3000 yil oldin paydo bo`lgan. 9-12-asrlarda Rossiya aholisining bosh suyagini o`rganish shuni ko`rsatdiki, aholining taxminan 3,3 foiz tish kariesidan aziyat chekkan. 17-asrda parhez yumshoq bo`lib, asosan uglevodlardan iborat bo`lib, natijada tish kariesining tarqalishi keskin oshdi. 19-asrning oxiriga kelib, rivojlangan mamlakatlarda aholining katta qismi tish kariesidan aziyat chekdi.

Tish kariesi tishlar chiqqandan keyin paydo bo`ladigan dinamik patalogik jarayon bo`lib, uning davomida tishning qattiq to`qimalarining demineralizatsiyasi va yumashashi sodir bo`ladi, so`ngra bo`shliq shaklida nuqson paydo bo`ladi.

Tish kariesi – bu odamlarning eng keng tarqalgan kasalligi. Asta-sekin rivojlanib, tishlarning to`liq nobud bo`lishiga, pulpa va periodontda yalig`lanish jarayonlarining rivojlanishiga, jag`-fasial to`qimalarning shikastlanishiga

(xo'ppoz, flegmona, osteomielit) olib keladi va tananing umumiy salomatligini buzadi. baholash uchun uchta asosiy ko'rsatgich qo'llaniladi:

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tavsiyalariga ko'ra, tish kariesni baholash uchun uchta asosiy ko'rsatgich qo'llaniladi:

tarqalish, zararning intensivligi va intensivlikning oshishi.

Kasallikning tarqalishi. Bu ma'lum bir aholi punkti, tuman yoki shaharda karies, plomba va olib tashlangan tishlari bo'lgan odamlarning foizi bilan belgilanadigan indeks. Misol uchun, agar tekshirilgan 100 kishidan iborat guruhda 95 kishida karies, plomba va tishlarni olib tashlash aniqlangan bo'lsa bu guruhda kasallikning tarqalishi 95% ni tashkil etadi

Tish kariesining intensivligi. Shikastlanish intensivligi ko'rsatkichi - 1 kishi yoki 1 guruh tekshirilgan odamlarda karies va uning asoratlari (K), plombalangan (P) va tish olib tashlangan (U) tishlarning o'rtacha soni. Bunday tishlarning umumiy soni KPU indeksidir va malum bir raqamli qiymatga ega. Tekshiruv davomida eng yosh guruh 35-44 yosh orasida. 35-44 yoshdagi KPU indeksiga asoslanib, stomatologik yordam sifatini baholash mumkin.

Kariesning kelib chiqishiga tashqi omillarning ta'siri - 1. og'iz gigienasiga rioya qilmaslik yani, tish yuzasida blyashka (mikrob qatlam) to'planadi. 2. shirinliklarga va uglevodlarga bo'lgan ovqatlar iste'mol qilish. Shakarli mahsulot bakteriyalar tomonidan kislotaga aylantiriladi va emalni kimyoviy qatlamini yemira boshlaydi.

3. bakteriyalardan asosan streptokok mutans va laktobasilluslar tomonidan tish emal qavati yemiriladi va karies asta-sekinlik bilan rivojlana boshlaydi. Undan tashqari tishlarning rivojlanishidagi buzilishlar ham kariesni rivojlanishiga sabab bo'ladi. Misol uchun tish emalining yupqa bo'lishi (gipoplaziya), tishning noto'ri joylashuvi (tish yuvilishining qiyinlashuvi), so'lakning kamayishi bu og'iz bo'shlig'da kislotalar muhitining kelib chiqishiga olib keladi va karies rivojlanishiga imkon yaratadi

Kariesning rivojlanishi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan va ommaga tatbiq etilgan. Ulardan Entin nazariyasi (fiziko-ximik) - Tish ikki muhit

(soʻlak va qon tomirlari) markazga intiluvchi boʻlib, asosan, kariesda kuzatiladi natijada emalni oziqlanishi buziladi, buni hisobiga emal kolloidlari burishadi, shishadi va uning oʻkazuvchanligi oʻzgaradi. Shu sababli karies rivojlanadi. A.I. Ribakovning ishchi konsepsiyasiga binoan, tish kariesi polietologik kasallik hisoblanadi. Konsepsiya asosida tish-jagʻ sistemasining rivojlanishini yoshga bogʻliq muvofiqliklari, ekzo va endogen omillar tishkariesini kelib chiqishini tushuntiradi. L.G. Nukomskiy (1948-yil) oʻzining biologik nazariyasida organizmlarning har hil ekzogen holatlari endogen oʻzgarishlarga olib keladi, deb taxmin qilgan.

Ekzogen omillarga; ogʻiz boʻshligi gigiyenasining pastligi, recus deformatsiyasi, shikastlanish, soʻlak ajralishining buzilishi, ogʻiz boʻshligʻida pH qiymatining buzilishi, bazi tishlarning chiqishini qiyinlashuvi, tishlar amplatsiyasi, tish jagʻ sistemasining kasalliklariga olib keladi.

Kimyoviy parazitlar nazariyasi (Miller 1884-yil) Ushbu nazariyaga binoan kariesni 2ta bosqichi bor ; a. tishlarni qattiq toʻqimalarining deminerolizatsiyasi.

b. mikroblarning salbiy tasiri 1- bosqichda ogʻiz boʻshligida ovqat qoldiqlarini cherish jarayoni natijasida organik kislotalar paydo boʻladi ular emalni anorganik qismlarini eritib yuboradi. 2- bosqichda emalni organik moddasi mikroorganizmlar fermentlari tasirida eriydi. E.E. Platonovning trofenevrotik nazariyasiga binoan, tish kariesi kelib chiqishi tishning qattiq toʻqimasining oziqlanishining buzilishidan kelib chiqadi. E.E. Platonov tish toʻqimalarining oziqlanishining nerv regulyatsiyasining ham asosiy patogenetik omil deb hisobladi. Biroq, endi maʼlumki, pulpa olib tashlangan tishlar 17 yoshgacha boʻlgan bolalarda normal ishlashda davom etadi. Kariesning murakkab shakllarini davolash sifatida pulpani olib tashlash tish emalidagi strukturaviy yoki funktsional oʻzgarishlarga olib kelmaydi. Ogʻiz boʻshligʻi suyuqligi bilan doimiy dinamik oʻzaro taʼsir depulpatsiya qilingan tishning qattiq toʻqimalarining yuqori mineralizatsiyasini taʼminlaydi.

Kariesni davolash va oldini olish –kariesning kelib chiqish sabablarini

o`ranib chiqdik endi uni davolashga o`tamiz. Diagnostikadan so`ng biz kariesni qaysi bosqichda ekanligini ko`rib chiqamiz. 1. boshlang`ich (dog` bosqichi) –bu bosqichda tish emalining minerallari kamaygan bo`ladi. Uni davolash uchun kaltsiy, fluor, fosfor, boy birikmalardan foydalanamiz. Misol uchun: "remodont", "R.O.C.S. Medical Minerals", "Elmex gelee" kabi vositalar tavsiya etiladi. 2. Agar emalda qora dog`lar ko`pib, chuqurlashib brogan bo`lsa (o`rta karies) deb ataladi. Buning davolash yo`llari kariesli to`qimani olib tashlash (bor mashinalar) yordamida, og`iz bo`shlig`idagi bakteriyalarni yo`qotish maqsadida (xlorgeksidin, natriy gipoxlorit), ochiq qolgan tish kovagini plomba yordamida to`ldirish. 3. chuqur karies (pulpa yaqinida) -bu holatda dentin deyarli to`liq zaralangan ammo pulpaga zarar yetmagan. Bu holatda davolash ishi quyidagicha: 1. ajratuvchi taglik orqali pulpa devori dentindan ajratiladi va ustidan vaqtinchalik plomba bilan yopiladi. 2. agar pulpa devoriga biroz zarar yetgan bo`lsa birinchi bo`lib davolovchi taglik (tarkibida kaltsiy moddasi bo`ladi) qo`yilib ustidan ajratuvchi taglik so`gra vaqtinchalik plomba bilan yopiladi.

Kariesni oldini olishda quyidagilar tavsiya etiladi: to`ri gigiyena, kuniga 2 mahal ovqatdan so`ng tishlarni tozalash, fluorli pastalardan foydalanish, shirinlikni kamaytirish, tishlarni har 6 oyda stomatolog nazoratidan o`tkazish, so`lak ko`paytiruvchi (sabzi, olma) mahsulotlarni iste`mol qilish

Xulosa

Karies -bu tishning yemirilishi natijasida paydo bo`ladigan kasallik bo`lib, u bakteriya va yomon og`iz gigiyenasi sababli kelib chiqadi. agar tishlar muntazam tozalanmasa, shakarli taomlar ko`p iste`mol qilinsa, bakteriyalar tish yuzasida ko`payib, emalni yemiradi va natijada tishlarda teshiklar paydo bo`ladi.

Kariesni o`z vaqtida davolash juda muhim, chunki davolanmagan karies keyinchalik pulpit yoki periodontit kabi og`ir kasalliklarga olib keladi. Hozirgi kunda stomatologiyada kariesni og`riqsiz va chiroyli usullarda davolash imkoniyatlari mavjud -zamonaviy plombalartish rangiga mos va mustahkam bo`ladi. Shunday qilib, kariesni vaqtida davolash va unga yo`l qo`ymaslik -sog`lom tishlar, toza og`iz va chiroyli tabassum garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Preklinik restavratsion stomatologiya (2022)
2. Tish kariesi. S.B.Fishchev, A.G.Klimov, A.V.Sevastyonov (2016).